



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**XORIJIY TILLAR FAKULTETI NEMIS TILI VA ADABIYOTI
KAFEDRASI**

403 – guruh talabasi Rahmonova Barnoning

IJTIMOIIY CHEGARALANGAN LEKSIKA TASNIFI
mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

N.Qodirova

Andijon - 2015

Ijtimoiy chegaralangan leksika tasnifi

1. Kirish

2. Tilning tasviriy vositalari

a. Tildagi maxsus leksik resurslar

b. Troplar va figuralar

3. Ijtimoiy chegaralangan leksika tasnifi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish.

O'lkamiz mustaqillik yo'lidan odim ota boshlaganidan buyon uning taqdiri barchamizning taqdirimizga aylanib qoldi. Bugun tushunchasi Vatan degan muqaddas tuyg'u yanada chuqurroq ma'no kasb etmoqda. Qalbida mana shu yuksak tuyg'u, Vataniga farzandlik hissi jo bo'lgan yurtdoshlarimiz kelajak avlodlar oldidagi burchni anglab, istiqlolimiozning barqarorligi yo'lida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu, albatta, ertangi yorug' kunimizga, O'zbekistonimiz jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari qatoridan joy olishiga qat'iy ishonch bildiradi. [10; 176]

Mustaqillik jahon taraqqiyoti ko'lamida o'z milliy qadriyatlarini, milliy ma'naviy turmush tarsi qoidalarini tiklashni taqozo etadi. Shu ma'noda ta'lim- tarbiya ishlarini talab darajasida tashkil qilish yangi jamiyat qurish poydevori bilan chambarchas bog'liqdir.

Prezidentimizning yaqinda e'lon qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chet o'qitilishi, o'rganilishiga bo'layotgan talabning ortib borayotgan e'tiboridan nishonadir. Jadal sur'atlarda rivojlanayotgan bugungi davda barchamizning, ayniqsa, yoshlarimizning ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarni mukammal bilishlari haqiqiy e'htiyojga aylanmoqda. Xorijiy tillar qatorida, ayniqsa electron axborot komunikasiya vositalaridan keng foydalanishi bilishi ahamiyat kasb etmoqda. [10; 177]

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida xorijiy tillarni o'rganish borasida o'ziga xos ilmiy-amaliy ahamiyatga tajriba to'plandi. Toshkent, Samarqand, Andijon va boshqa viloyat universitetlarida G'arb tillarin ham ilmiy, ham amaliy jihatdan tadqiqot qilayotgan markazlar shakllandi. Jahon tan olgan salohiyatli ilmiy-pedagogik kadrlar fan doktorlari, professorlar etishib chiqdi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, ularni yangi dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmali hamda zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlash ishiga ham jiddiy yondoshilmoqda. Ta'lim uzluksizligini inobatga olgan holda umumta'lim maktablarining birinchi

sinfidan boshlab kasb-hunar kollejlari, akademik lisey va oiliy o'quv yurtlari darsliklari til materiallarining bosqichma-bosqich uzviyligini ta'minlovchi zamonaviy darsliklar o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda.

Ayniqsa, so'ngi chorak asr davomida rivoj topayotgan jahon fan-texnika taraqqiyoti, axborot ma'lumotlari xorijiy tillarni puxta o'rganishni kun tartibiga jiddiy qo'ymoqda. Chet tillarni bilganda ham puxta bilishga da'vat etilmoqda. Chet tillarda nafaqat ravon gapiradigan, balki maqolalar, xatlar yoza oladigan, ijtimoiy ma'ruzalar qila oladigan, turli soha mutaxassislariga ehtiyoj ortmoqda. Talab va ehtiyoj o'z navbatida tilshunoslik, tarjimashunoslik va bochqa shu kabi tilga oid fanlar rivojiga sabab bo'ldi.

Mazkur tadqiqodning asosiy maqsadi tildagi tasviriy vositalar tizmini o'rganish, ijtimoiy chegaralangan leksika tasnifiga to'xtalib o'tish bo'lib, u turli til tizimiga mansub ushbu vositalarning tarjimasida funktsional adekvat ekvivalentlarini to'ishga imkon beradi. Tasviriy vositalar lingvistik xususiyatlarini o'rganishda asosiy eg'tibor uning turli til materiallarida, adabiy manbalarda qo'llanishini qiyoslashdan iboratdir.

Bunga sabab, birinchidan ma'lum tilda tasviriy vositalaridan bo'lmish jargon va argotlarni o'rganish, til o'qitilishidagi amaliy maqsadlarni hal qilish va nutq malaka va ko'nikmalarni shakillantirishga imkon beradi.

Ikkinchidan tasviriy vositalarning lingvistik taxlili ma'lum tildagi u yoki bu ma'lumotni boshqa tilga o'girishga yordam beradi. Bu esa kurs ishimiz uchun tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. "Ijtimoiy chegaralangan leksika tasnifi" mavzusi yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Turli til tizimiga mansub ijtimoiy chegaralangan leksika nemis va o'zbek tillarida qiyosiy tipologik tasnifi va tarjima masalalariga batafsil to'xtalib o'tilmagan.

Mavzuning yangiligi. Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlar davomida ijtimoiy chegaralangan leksika, ularning turlari, yasaliş usullari nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish, masalalari yoritiladi.

Ishning maqsad va vazifalari. Mavzu o'rganilishining maqsadi quyidagilardir;

- bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik sifatini ko'tarish
nemis tilini o'rganishga va o'rgatishga qiziquvchilar, turli til tizimiga mansub
nemis va o'zbek tillaridagi tasviriy vositalar va ularning tarjima masalari
bilan shug'ullanuvchilar uchun ma'lumot berish.

Tadqiqotlardan ko'zlangan maqsadlardan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal
etish zarur deb topildi;

- Tasviriy vositalar haqida ma'lumot berish;
- Ijtimoiy chegaralangan leksikaning turli tillarda ifodalanishi, ulaning
qiyosiy tasnifi ;
- Ijtimoiy chegaralangan leksika rning turli tillarda yasalishi, turlari,
strukturasini badiiy matndan olingan misollar yordamida qiyosiy tahlili;
- Ijtimoiy chegaralangan leksika ning turli tillarda tarjima qilish masalalariga
oydinlik kiritish;
- Umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb kolejlarida olmon tili
darslarida foydalanish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar berish va amaliyotga
qo'llashga tavsiya etish.

Mavzuning predmeti sifatida ta'lim muassasalari o'quvchilarining olmon tili
o'q itilishida, ularning bilimlarini boyitish va darslarda tasviriy vositalardan
foydalanish masalalariga oydinlik kiritish.

Mavzuning metodologik asosini O'zbekistan respublikasi Prezidentining
ta'lim to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan asarlari, hukumatimizning ta'limni
isloh qilish borasidagi qaror va farmoyishlari, "Kadrlar tayyorlash milliy
dasturi" va "Ta'lim to'g'ridagi qonuni" tashkil qiladi.

Mavzuning o'rganilishida qo'llanilgan metodlar. Mavzu yuzasidan olib
borilgan tadqiqotlar davomida quyidagi metodlardan foydalanildi.

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish;

Turli tizimga mansub tillarga mansub ijtimoiy chegaralangan leksika qiyosiy
o'rganish metod;

Soxaviy adabiyotlarni o'rganish va taxlil qilish metodi.

Mavzu o'rganilishining nazariy va amaliy ahamiyti.

Tadqiqot natijalari tilshunoslik, qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslik fanlari bo'yicha o'xshatishlarning turli tillardagi qiyosiy tahlili bo'yisha kerakli ma'lumotlarni berish, olmon tili darslari samaradorligini, qiziqarliligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot badiiy asarlardan olingan misollar yordamida ijtimoiy chegaralangan leksika taxlil qilinadi, ularning stilistik, structural, semantik xususiyatlari bayon qilinadi. Ulardan tarjima jarayonida foydalanish uchun uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqiladi. Bu esa mavzu o'rganilishining nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Mavzu yusaidan olib borilgan izlanishlar jarayonida Andijon viloyati Andijon shahridagi 30-maktabda olib borilgan ta'lim-tarbiya ishlari va olmon tili darslarini tashkil qilish tajribalaridan foydalanildi. Mavzu yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalar Andijon viloyati Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabida qo'llanildi va tahlil qilindi.

Tilning tasviriy vositalari

Tilda biror predmetning boshqa predmetlardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatini ta'kidlash uchun uning maxsus belgisini ko'rsatib turuvchi so'zlardan foydalaniladi, yoki shu predmet belgisini o'zidan-uzoq gaplar vositasidan izoxlab o'tirmasdan, uni boshqa biror predmetga o'xshatish bilan konkretlikka, aniqlikka erishiladi.

Ba'zan esa turmushda ayrim xodisalarning salbiy tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishdan ko'ra kinoya, istexzolarga murojyat etiladi. Bunday vositalar tilshunoslikda tasviriy vositalar termini bilan yuritiladi.

Tilga rang-baranglik berish, badiiylilikni kuchaytirish niyatida ham ko'proq turli xil tasviriy vositalarga murojyat qilinadi.

Yozuvchi o'z asarining g'oyasini, unda qo'yilgan maqsadni turli xil obrazlar sistemasini, shu obraz odatlari, xarakteri va xususiyatlari asosida ochib beradi. Bunda ularning turmushini asvirlovchi eng zaruriy, eng muxim narsa tildir.

V.G.Belinskiy aytganidek, poeziya sana'ti formalarining eng yuqori turidir. Sana't formalarining boshqa turi poeziyaga qaraganda ma'lum darajada chegaralangan. Masalan, asarlari(agar qurilish inshotlarini shunday deb atash mumkin bo'lsa)kishini o'zining chiroyi, salobati, latifligi, inshoot qismlarining garmoniyasi bilan o'ziga maftun etadi. Ammo uning kishi qalbini o'ziga tortuvchi dilbarligi, jojibadorligi shu bilan tomom bo'ladi, xolos (Shoxzinda, Ulug'bek madrasasi, A Navoiy nomi Toshkent opera va balet teatr binosi qurilishlarini ko'z oldigizga, keltiring). Xaykaltaroshlik sa'natining tasvirlash vositasi me'morchilikka nisbatan kengroq; u endi kishi jismi, qomatining ko'rinishni, shu bilan birga, u orqoli ayrim fikr nozikliklarin ifodolashi mumkin. Ammo xaykal va uning yuz tuzilishidagi fikr taviriylik qomatning faqat bir xil ko'rinishini, fikriy ifodaning o'sha momentdagi xoltidagina ifodalaydi. Rassomchlikning tasviry ifodalari yuqoridagilardan ancha kuchliroq, kenroq., u, xatto, kishning ichki dunyosining ham o'zida aks ettira oladi. Ammo birgina momentni ifodalash bilan chegaralanadi. Musiqa-chi ?-musiqa ko'proq ichki xis tuyg'ularga ta'sir qiluvchi sa'natdir bu ko'proq tovush bilan bog'liq bo'lib, nima deyilayotgani aniq sezilmay qolishi ham mumkin.

Poeziya esa sa'natning yuqorida ko'rsatilgan turlaridagi hamma yaxshi hislatlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Poeziya tildan erkin foydalangan holda kishining ichki dunyosining ham, ruxiy holatini ham keng tasavur eta oladigan qilib tasvirlay oladi. Nima uchun? Chuki yozuvchi, shoir <<adbiyotining birinchi elementi, uning asosiy quroli... turmush fakitlari va hodisalari bilan birga adabiyotning mteriali ham>> bo'lgan durdonadan ----tildan foydalanadi. Ana shu til, uning boyligidan yaxshi foydalana olgan shoirgina kishi qalbida bo'lgan emosional boylikni, shu hislari tug'yonini uyg'ota oladi.

Til obektiv borliq va unga kishilarning munosabtlarni keng va har tomonlama ko'rsatib berishda juda katta, hatto "chegarasiz" imkoniyalariga egadir. Ammo obyektiv borliq fikr keng va har tommonlama bekami ko'st ifodalanishi uchun juda ko'p ter to'kib ishlash talab qilinadi, til boyligini, uning turli hil mano nozikliklarini tinmay o'rganish lozim bo'ladi. Ana shundagina qisqa jummlalarda,

satirlarda, olam-olam fikirlarni olish mumkin bo'ladi. "Til(so'z)—har qanday fakitning, har qanday fikirning libosidir ". Bu sarupoxdan esa to'g'ri foydalana bilish kerak, faqat va fikirlarni tushintirishda ularni o'z o'rnidagina ishlata bilsh, hatto, so'zlarni siliqlashtira bilish kerak. A.M. Gorkiy aytganidek halq tili deyilganda hom til, adabiy til deyilganda esa asrlar davomida so'z santkorlari—yozuvchilar tomonidan siliqlashtirilgan ishlangan til tushinilishi lozim.Yozuvchi ijot qilar ekan, tilga befarq qaramaydi; undagi durdonalarni teradi va joy-joyiga qo'yadi, so'zlarga yangi mano ottenkalari beradi, uni siliqlashtiradi. Xozirgi o'zbek adabiy tili unga klassiklarimizning huddu shuday munosabatda bo'lishi natijasida asirlar davomida bugungi xolatga kelgandir. Tildan funksional stili formalari o'z maqsadiga qarab turlicha foydalaniladi. Shuning uchun ham ilmiy ilmiy-ommabop asarlari gazeta maqolalari hamda turli hil ish qog'ozlarining tillari bir-birlariga aynan o'xshash emas.

Ko'pincha yozuvchi tasvirlatotgan voqea-xodisaning hayotiyligi, fikr yaqqolliigi shu yozuvchining til tasviriy vositalari - epitelar, o'xshatishlar, metafora, metonimiya, mubolag'a, kichraytirishlardan to'g'ri foydalanishida ko'rinadi, deydilar. Tasviriy vositalardan foydalanish adabiy asar badiiyiligini oshiradi.

Badiiy asarda qo'llanilgan barcha so'zlar ham tasviriy vositalardir. Ana shu so'zlar vositasida yozuvchi asarning ma'nosi, g'oyasini o'quvchiga yetkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-xodisaga o'quvchining munosabatini uyg'otadi. Busiz, umuman adabiy asar haqida gap bo'lishi mumkin emas. Adabiy asarda ishlatilgan so'zlarning bir xili betaraf qimmatda bo'lsa, ikkinchi bir xillari nutqqa ekspressivligi, emotsiya berish uchun hizmat qiladi. Albatta neytral qimmatga ega bo'lgan so'zlar ham kontekst, maxsus intonatsiya yordamida nutqqa ekspressivlik kiritishi mumkin.

Tasviriy vositalarni, birinchidan, maxsus leksik resurslar (arxaizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, varvarizmlar, vulgarizmlar) va ikkinchidan, maxsus tasviriy vositalar deb ikkiga bo'ladilar.

Ikkinchi gruppaga -troplar va figuralar deb ataluvchi tasviriy vositalar kiradi. Ular badiiy nutqda voqea-xodisalarni obrazli qilib tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, u yoki bu narsaning xususiyati, xarakteri, ko'rinishi qisqa, ifodali, obrazli qilib tasvirlash uchun foydalaniladi.

Tildagi maxsus leksik resurslar

Tasviriy vositalarning birinchi guruxi maxsus leksik resurslar deya nomlanib, ularga arxaizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, varvarizmlar, vulgarizmlar kiradi

Arxaizm so'zi grekcha archaios – veraltet ma'nosiga ega. Arxaizmlarning paydo bo'lishi tarixiy jarayon bo'lib, hozirgi zamon nemis tili nuqtai nazaridan arxaik ma'noli deb qaralayotgan so'z o'z davrida odatiy so'z bo'lganligi aniq. Masalan, o'rta asrlarda Mase – Verwandte, Degen – Kriger, Magd – Mädchen ma'nosida sinxron xarakterga ega bo'lgan. Arxaik so'zlar bilan bir qatorda ularning eskirgan ma'nolari, fonetik va grammatik shakllari til sistemasida mavjud. SHunga ko'ra arxaizmlar quyidagicha tasniflanadi:

1. Tushuncha mazmuni eskirgan arxaizmlar
2. So'z ma'nosi eskirgan arxaizmlar
3. SHaklan eskirgan arxaizmlar

Ba'zida ma'lum xalqning turmush tarzida narsa va hodisalarning eskirishi natijasida ular ifoda qilayotgan tushuncha va ma'no iste'moldan chiqib ketadi. Bunday arxaizmlar istorizmlar (Historismen) deyiladi. Masalan, nemis xalqi tarixi hamda feodalizm va ritsarlar davri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalarni olaylik. Faqat tarixiy tushunchalarni bildiradigan quyidagi so'zlar o'sha davr tarixiy voqeligini ifodalaydi: Minnesang – Minne – Liebe, das Gewand – Kleid, die Lanze – nayza, der Spieß – nayza, der Harnisch – sovut. Bu kabi istorizmlar o'zbek tilida ham talaygina - qozi, amin, olampanoh, ulus, aqcha kabi.

Ma'lum ma'nosi eskirgan arxaizmlarning xususiyati shundayki, ma'nolardan faqat bittasi eskirgan, boshqa bir ma'noga ega bo'lgan holda esa hozirgi zamon

tilida mavjud bo'lgan so'zlardir. Masalan, Schild so'zining hozirgi kunda "Platte mit einer Aufschrift" ma'nosi bilan birga eskirgan "Schutzwaffe" ma'nosi ham bor: Ein Schild an der Wand heißt – Rauchen verboten! Er schob ein Felsstück vor sich her wie einen Schild. (E.Strittmatter).¹ Yana bir misol. Zunge so'zi hozirgi kunda inson tana a'zolaridan birini nomlaydi. qadimda esa bu so'z Sprache ma'nosida ham qo'llangan.

Ba'zida so'zning qadimiy ma'nosi eskirgan bo'lib, ularning shakllari hozirgi kunda qo'llanmaydi. Masalan, Minne – Liebe ma'nosida, sonder – ohne ma'nosida, mahnen – erinnern ma'nosida, ular arxaizmlar qatoridan mustahkam joy olgan. SHaklan arxaik so'zlarga o'zlarining zamonaviy va shu bilan birga arxaik shakliga ega bo'lgan, ba'zan qo'llanib turadigan so'zlar kiradi. Masalan,

Gülden - Golden

Odem - Atem

Herre - Herr

Jungfer - Jungfrau

Herze - Herz

Turnei - Turnier

Bunday arxaizmlar davr koloritini ifodalash maqsadida stilistik nuqtai nazardan ba'zan badiiy adabiyotda qo'llanadi. Ba'zi grammatik shakli eskirgan arxaizmlar ham xuddi shu maqsadlarda qo'llanadi. Masalan, ward – wurde, begonnen – begonnen, auf Erde – auf Erden, auf dem Gebiete – am Tage.

Neologizmlar. Neologizm so'zi grekcha neo – neu, logos – Wort so'zlaridan olingan bo'lib, «yangi so'z» ma'nosida qo'llanadi.

Har qanday til sistemasining doimo yangi so'zlar bilan boyib borishi tabiiy hol, chunki jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi tushunchalar, yangi predmet va hodisalar yuzaga keladiki, ularni nomlash uchun yangi so'z yuzaga keladi. SHunday ekan yangi so'zlarning paydo bo'lishi davr taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bunday so'zlar vaqt o'tishi bilan neologizm xarakterini yo'qota borib, tilning faol lug'at tarkibidan joy oladi. Masalan, XX asr boshlaridagi ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyot tufayli bir qator neologizmlar yuzaga keldi. Masalan, Telefon, Telegraph, Radio, Fernseher, Kuhlschrank, Staubsauger u.a. Bu soʻzlar hozirgi kunda yangi soʻz «oxori»ni yoʻqotib, odatiy soʻzlar qatoridan joy oldi.

Neologizmlar nemis tiliga xos boʻlgan qoʻshma soʻzlar yasash, maʼno oʻzgarishlari, yangi frazeologizmlar yasash, soʻz oʻzlashtirish kabi usullar vositasida paydo boʻladi. Eng sermahsul usullardan biri qoʻshma soʻzlar vositasida yangi soʻz yasash hisoblanadi. Masalan, Weltfrieden, Friedenslager, Konkerrenzfhdig, Aufbaupro-gramm, hauseigen, fdlschungssicher u.a. qator neologizmlar ablaytung hamda abbreviatura yoʻli bilan yasalgan: Entmilitarisierung, Remilitarisierung, U-Bahn, KKW (Kernkraftwerk), FHZ (Freihandelszone), GUS (Gemeinschaft Unabhängiger Staaten).

Neologizmlar yasaliş usuliga koʻra uch guruhga boʻlinadi:

1. Yangi soʻzlar - Neuwörter
2. Yangi yasalgan soʻzlar - Neuprägung
3. Yangi maʼnolar – Neubedeutung, semantik neologizmlar

Yangi soʻzlarning aksariyati til jamoasiga tushunarlidir. Masalan, Computer, Videorecorder, digitalisieren, der Tend (die Tendenz), das Espresso (KaffeegʻCafe); file, server, modem, user; ingliz va frantsuz tillaridan kirgan reklama bilan bogʻliq neologizmlar: Care-Tex (der Stoff für verschiedenen Typen der Kleidung, etwas Modernes), das Tefal, das Teflon, das Lypex u.a.

Tilda mavjud soʻz yasash usullari vositasida ham yangi soʻzlar yuzaga keladi. qoʻshma soʻzlar yasash, ablaytung, abbreviatura usullari bilan orqali neologizmlar hosil qilinishi mumkin. Analogiya vositasida ham yangi soʻzlar yuzaga keladi.

Troplar va figuralar. Troplar og'zaki nutqda, folklorda, klassik adabiyotda ilgaridan ham ishlatilib kelingan. Yuzingni o'xshatdim osmonda oyga, o'zingni o'xshatdim bo'z qarchig'ayga.

Bunday tasvirlar hozirgi kunda ham o'z qiymatini yo'qotgan emas. Metafora, epitetlarning kombinatsion imkoniyatlari chegarasidir. Har qanday narsa va hodisalar uchun yana yangi-yangi troplar yaratish mumkin.

Stilistik figuralarning imkoniyati troplarga nisbatan biroz torroq. Shoir va yozuvchilar uchun hali hech kim qo'l tegizmagan stilistik figuralar ishlatish imkoniyatlari juda cheklangan. Xatto, shunday imkoniyatli holatlar bo'lganda ham ular hamma vaqt troplardagidek (ko'chim) effekt kasb etavermaydi.

Troplar rang-barang buyoqlar bilan chizilgan rasmga o'xshasa, stilistik figuralar - bir rangdagi gravyuraga o'xshaydi.

Tildagi ko'pgina so'zlar o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni, hatto, ba'zan o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolarni ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Bir predmet belgisi boshqa bir predmetga ko'chiriladi, o'xshatiladi. So'z ma'nosidagi boshqa tomonga siljish esa, ko'pincha, uning o'zi uchun xos bo'lmagan kontekst ichida kelganda yuz beradi.

Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarni shu maqsadda, umuman, ko'chma ma'noda (asossiz ma'noga emas) ishlatishga troplar deyiladi.

Bizning ongimizda qandaydir xususiyatlari bilan, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki predmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish troplarga asos qilib olinadi. Ya'ni biror predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi.

Troplarning ishlatilishi badiiy nutqni yangi ma'no ottenkali birikmalar, yangi ottenkali fikrlar bilan boyitadi, tasvirlanayotgan narsaning yozuvchi yoki so'zlovchi hohlagan tomonini oydinroq qilib tasvirlashda, voqea-hodisani baholash momentini hosil qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Troplar ko'proq og'zaki nutq uchun harakterli hodisalardir. Lekin badiiy adabiyot tilida, xususan, poetic asarlar tilida ham tez-tez ishlatilib turadi, chunki yozuvchiga tasvirlanayotgan voqea-hodisani induviduallashtirish, ularni baholashda katta yordam beradigan vositadsir.

Troplardan zo'rma-zo'raki, kerak bo'lgan-bo'lmagan o'rinda ataylab nutqni bejama qilib ko'rsatish uchun foydalana berish yaramaydi. Ularga notiq yoki yozuvchi zarurat tug'ilgandagina murojaat qilishi lozim. Aks holda ular badiiy qimmatini oshirish o'rniga unga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Masalan; Ey kallasi hum, bad nafsiga dum, vujudi naqs, qadami shum, yoli yo'q, umidi uziq, bu kungi chinakam nurlar hijolatidan teskari brogan bo'm!

Yoki; Ha, domulla! Hayrat barmog'ini tishla-yu, bir bog' poxolga o'xshagan soqolingni tutamla!

Bu misollarning ba'zilarida troplarning yuzaga chiqishida go'yo bog'lovchisi, kabi ko'makchisi, o'xshagan so'zi asosiy rol o'ynasa, birinchi va ikkinchi gaplarda intonatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Misollardan ko'rinib tiribdiki, predmetning xususiyatini to'g'ridan-to'g'ri tasvirlashdan ko'ra, bir predmet belgisini ikkinchi bir predmetga o'tqazish orqali boshqa predmetni tasvirlash fikrni aniqroq, ifodaliroq qilib ko'rsatishda muhim rol o'ynar ekan.

Troplar quyidagi asosiy turlarga bolinadi. Ular quyidagilardir; Metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o'shatish.

Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan biri uning metaforikligi sanaladi. Bu o'rinda "*metaforiklik*"ni keng ma'noda tushunish, uni "o'xshashlik"ning o'zi bilangina bog'lab qo'ymaslik lozim. Ya'ni, biron predmet shaklining, belgisining, harakatning o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirishdir. "Metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi. Chinakam san'atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo'lib, u voqelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga ko'rinib turgan tashqi o'xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. San'atkor biz uchun kutilmagan ichki o'xshashlikni inkishof etadiki, natijada o'sha biz bilgan narsa-hodisa ko'z oldimizda butkul yangicha bir tarzda suratlanadi, o'zining bizga noayon qirralarini namoyon etadi.

Metafora- grekcha metaphora (ko'chim, istiora) so'zidan olingan.

Nutqqa obrazlilik, emotsiya berish mqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarining ko'chma ma'noda ishlatilishi *metafora* deyiladi. Masalan, kishining yoshligini *g'uncha*, yigitlik davrini *umrning bahori* kabi so'z birikmalari bilan, o'ldi so'zini *xazon bo'ldi, so'ldi*

so'zlari bilan almashtirish mumkin. Chunki bu so'zlar anglatgan ma'nolar o'rtasida qandaydir umumiylik, yaqinlik mavjud.

A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamovlarning hammualliflikda yaratgan "O'zbek tili stilistikasi" asarida metaforaga bir muncha o'zgacha yondashib, uni *y a s h i r i n o' x s h a t i s h* deb atashgan. Ammo oddiy o'xshatish har doim asosiy ikki a'zodan tashkil topsa (ya'ni nima qiyos qilinadi, qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet) metaforada faqat ikkinchi a'zo – o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushurib qoldiriladi va u kontekstda ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi.

Haqiqatda ham, ingliz tilida olib borgan izlanishlarimizda, shu holat mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Nemis tilida ham, o'zbek tilida ham metaforaning ikki xil ko'rinishi mavjud:

1. Shakliy o'xshashlik – odamning qulog'i(o'z.m)-qozonning qulog'i(ko'chma m.)

2. Belgi o'xshashligi – yengil eshik(o'z.m)- yengil ta'zim(ko'chma m.)

I.R.Galperinning fikricha "Metafora ikki bir xil tuzilishdagi o'ziga xos xususiyat yoki jihatning yaqinligi va o'xshashligi, shunga asoslangan lug'at hamda mantiqiy ma'no bo'g'liqligidir.

Nemis tilida ham, o'zbek tilida ham metafora tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan bo'ladi. Ya'ni sodda metafora bir so'zdan, kengaygani esa ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi. Masalan, sodda: gumbaz (osmon), yiqildim (yomon baho oldim) ma'nosida. Du bist mein *Schatz*.

Kengaygan: po'lat ot, zangori kema (paxta terish mashinasi), oq oltin (paxta), qora oltin (neft). Eiserne Kanzler, goldena Jahre.

Badiiy metafora bilan lingvistik metaforani bir- biridan farqlash kerak. Agar metafora predmetning doimiy nomiga aylanib qolgan bo'lsa, u tilshunoslikning o'rganish ob'ekti bo'ladi. Masalan, *yoy* – asli yomg'ir yoqqandan so'ng osmonda paydo bo'ladigan yarim doira shaklidagi yorug' chiziq. Uning nomi tarixiy jihatdan ov quroliga ham o'tgan; *omon* – sifat, *Omon* – ot; *kakku* – tanqlidiy so'z, *kakku* – qush nomi va h.k.

Metonimiya – grekcha metonymia so'zidan olingan bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni anglatadi.

A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamovlarning metonimiyaga quyidagicha yondashadi: “metonimiya hodisasi ham so'zlarning ko'chma ma'nosi bilan bog'liq. Ammo u yerda asosan bir narsa yoki voqea- hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea- hodisa ongimizda bir- biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Metaforada bir- biriga o'xshash predmetlarning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir- biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir- biridan farq qiluvchi (bir- biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi.”²

Ongimizda avtor bilan uning kitobi, odamning maxsus kiyimi va odam, ovqat va idish- tovoq bir- bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, *Navoiyning asarlarini o'qidim* deyish o'rniga *Navoiyni o'qidim* deymiz, *bir tovoq ovqat yedim* deyish o'rniga *bir tovoqni tushurdim*, *bir stakan suv ichdim* deyish o'rniga *bir stakan ichdim* deymiz.

² A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamov “O'zbek tili stilistikasi”, T. 1983.

Stepanov G.V.O o'zining "О стиле художественной литературе" asarida metonimiya ikki narsaning bog'liqligiga emas, balki ularning anglatayotgan ma'no aloqadorligiga asoslanishini ta'kidlab o'tgan.

I.R.Galperin fikricha esa nutqda yoki faol tilda qo'llangan metonimiya yashirin metonimiya bo'lib, u bir so'zning ikkinchisiga umuman kutilmagan ma'no beradi.

I.R.Galperin metonimiyani metaforadan farqlovchi xususiyatlarini misollar berish orqali tushuntirib o'tadi: metonimiya va metafora ma'no anglatgan usulida farq qiladi. Metaforaning ma'no hosil qilish jarayonida bir tasvir yoki narsa boshqasini inkor etadi, lamp so'zi "The sky lamp of the night" ya'ni tunni yorutuvchi chiroqqa, oyga almashtirilyapti. Lekin bu metonimiyaga xos emas. Metonimiya ma'lum bir narsani namoyish etayotganda boshqasini istisno etmaydi. Masalan, yuqorida berilgan misol *the moustache and the man himself*.

Nemis tilida ham o'zbek tilida ham metaforaning, predmetlarning nomlarini boshqasiga o'tkazishning bir necha xil ko'rinishlari mavjud:

1. Konkret tushuncha nomi o'rnida abstrakt ot qo'llanishi mumkin: Odamlar esnaydi, mudraydi, majlis raisga xo'mrayib qaraydi.(A.Q.)
2. Biror narsa ichidagi predmetning ma'nosi o'sha narsaga (idishga) o'tkaziladi: *bir tovoq palov yedim* deyish o'rniga *bir tovoqni tushurdim* deyish.
3. Avtorning nomi uning asari o'rnida qo'llanadi: *Marksni o'qidim, Shekspirni o'qidim*. Bu yerda Marks va Shekspir asarlarini o'qidim degan ma'no tushuniladi.
4. Biror predmetni u yasalgan material bilan almashtirish:

5. Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajaruvchisi qurolining nomi bilan almashtiriladi: Uning *perosi qasos o'ti bilan yonardi*.

6. Ma'lum yerda, mamlakatda, davlatda yashab turgan kishilar ma'nosi shu yerga, mamlakat yo davlatga ko'chiriladi: "Majlisga butun qishloq keldi."

Sinekdoha – grekcha synekdoche so'zidan olingan bo'lib, predmetning soni bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni predmetlarning son jihatidan birining (qism, to'la) ma'nosi ikkinchisiga o'tadi.

Butun o'rnida qism (yohud, aksincha) yoki birlik o'rnida ko'plik (va aksincha) qo'llanishini ham bunga misol sifatida ko'rsatish mumkin: Buyuk armiyaning soldati! Quyidagilarga amal qilsang, senga o'q tegmaydi, yengilmaysan.

Shunga o'xshash *England* deyish o'rniga *London*, yoki *guruhimizda 28 talaba bor* deyish o'rniga – *guruhda 28 aqlli bor* deyish ham sinekdohaning ko'rinishlaridan biridir.

Sinekdohaning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

a) Butun o'rnida qism: ba'zan biror kishini chaqirish uchun uning ismi bilan emas, balki kallasi katta bo'lsa, "ey kalla", shlyapa kiygan bo'lsa, "ey shlyapa" deb chaqirish hollarini uchratamiz:

Ko'plik o'rnida birlikni ishlatish: Sotuvchi, xaridor bilan xushmuomalada bo'l.

O'xshatish – ikki narsa yoki voqea- hodisaning o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'ttiribroq ko'rsatib berishdir.

O'xshatish eng qadimgi tasviriyl vositalardan biri bo'lib, eng sodda va juda ko'p qo'llanadigan sintaktik hodisa hisoblanadi.

A.Tixonov, R.Qo'ng'urovlarning fikricha, tropning bir ko'rinishi sifatida o'xshatish adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi; uning ifodalanish usullari, struktural sostavini o'rganish, shu bilan birga, gapning tarkibiy komponenti ekanligi va nihoyat, umuman u til fakti sifatida tilshunoslikning ham obyekti hisoblanadi.³ Bu haqida batafsilroq quyida to'xtalib o'tamiz.

Epitet yozuvchining maqsadi va epitetning mazmuni nuqtai nazaridan tasviriy va lirik deb ikkiga bo'linadi.

Tasviriy epitet predmetning biror tashqi belgisini ajratib ko'rsatish uchun ishlatilib, unda baholash ottenkasi (kimmati) bo'lmaydi:

Har kun chiqar ya r q i r a b oftob,
Tong otadir o'lkada har kun,
Har s o f sah ar, har bir t i n i q tun.
Sharaf bor deb etadir xitob

(H. O l i m j o n. «Do'stinga»).

Lirik e'itetlar esa avtorning tasvirlanayotgan predmetga to'g'ridan-to'g'ri munosabatini ko'rsatadi.

Lekin Layli boshiga kelgan
Qo r a kunlar bizga yot butun;
Bizga yotdir Shirin baxtini
Paymol etgan u q o p-q o r a tun

(H. O l i m j o n. I).

yoki:

Gamlet yuragiga berardi hayot
Sening u otashin, gulbarg lablaring,
Jasur hayoliga bog'lardi qanot
Bog'idan bir kezib o'tganing sening

³ А.Тихонов, Р.Кунгуров. Сравнения в русском и узбекском языках, "Республиканская конференция по вопросам языкознания и методика преподавания иностранных языков", Алма-Ата, 1964 г., 73-бет.

(H. O l i m j o n. «Ofeliyaning o'limi»).

Shunday epitetlar ham bo'ladiki, unda tashqi tasvir "mahnosi ham, lirik element ham mavjud. Bunday epitetlar l i r o - e - p i k e p i t e t l a r deyiladi.

B o' l a,

yu mshoq,

s e m i z,

s y e r o b

siynalarda

Yangi davr yuragining

O'ti ko'kargan,

Yuraklari tetik urgan

oppoq, momiq tan!

(H. O l i m j o n. «Baxtlar vodiysi».)

Epitetlarning biz yuqorida metaforik xarakterga ega bo'lishlari, metonimiyaga yaqinligi haqida o'qidik. Lekin ularni bir-birlaridan farqlash lozim bo'ladi. Metafora va metonimiyalar shu mahnoga teng keladigan mustaqil ifoda sifatida ko'zga tashlansa, epitet doim o'z aniqlanmishiga bo'ysunadi, uning soyasi kabi unga ergashib yuradi. [8;]

Yuqorida aytganimizdek, agar biz biror kishi haqida gapira turib, uning yuragi tosh der ekanmiz jumladagi yuragi tosh birikmasidan qattiqqo'llik, befarqlik, rahmsizlik tushunchasini anglaymiz. Bu holatda toshyurak birlikda metafora hisoblanadi. Ammo bu o'rinda tosh so'zining ko'chma ma'noda ishlatilganligini esdan chiqarmaslik kerak. Demak, tosh yurak birikmasidagi tosh epiteti metaforik epitet sifatida talqin qilishishi lozim.

Yoki *Auditoriya shovqin ko'tardi* birikmasi bilan *Shovqin ko'targan auditoriya* gaplarini chog'ishtirib ko'raylik.

Birinchi ga'dan biz studentlar shovqin ko'targanini tushunamiz va uni auditoriyadagi studentlar shovqin ko'tardi yoki oddiygina studentlar shovqin ko'tardi gapi bilan almashtirish mumkin. Demak, birinchi ga'da biz metonimiya hodisasini ko'ramiz.

Ikkinchi gapda shovqin ko'targan birikmasi auditormyaga nisbatan aniqlovchi — epitet, ammo u metonimik xarakterga ega.

X. Olimjondan keltirilgan quyidagi parchada bu xolat yana — ochiq-oydin seziladi:

Ko'kdan

Har kun

Oltin olov to'kildi.

Jim-jit har tun

G'avg'o bilan so'kildi.

Mudragan,

U x l a g a n

har yer jonlandi.

Ko'pincha o'xshatish bilan sifatlash ham aralashtiriladi. Masalan, ona — Vatan, velosiped — ko'zoynak birikmalarini olaylik. Bular bir o'rinda o'xshatish deyilssa, ikkinchi o'rinda sifatlash deyiladi. Haqiqatda bu yerda ikki holatni ham ko'rish mumkin. Byrinchidan misoldagi, Vatan, ko'zoynaklar Ona va velosipedga oxshatilgan. Shu bilan birga, Vatanning ulug'lik, mehribonlik kabi xususiyatini, belgisini ona so'zi orqali aniqlayapti ham. Shunying uchun bunday epitetlarni o'xshatish epitetlar deyish ma'qulroq bo'lardi.

Ijtimoiy chegaranlangan leksika tasnifi

Inson har qanday jamiyatda o'z qiziqishlari hayot sharoiti orqali ma'lum guruxlarga jamlanadi. Natijada o'ziga xos guruh tillari shakllandi.

Olmon tilida an'anaga ko'ra bunday guruhlar sirasiga ovchilar tili, soldatlar tili, o'quvchilar tili, daydi, bezorilar tili va boshqalar kiradi.

Bunday gruppaviy leksika umumtil leksikasidan qo'llanilishining chegaralanganligi, aksariyat og'zaki nutq birligi sifatida qo'llanilishi bilan farqlanadi.

Yozma ko'rinishda esa faqat stilistik maqsadlarda qo'llaniladi. Termin va professionalezmlardan ular o'zining emosional-ekspressiv xarakteri, umumtil leksikasiga nisbatan evfemistik sinonim sifatida qo'llanilishi ko'proq metaforik ma'noda shakllanishi bilan farqlanadi.

Soldatlar tili aksariyat xollarda metaforik va metonimik ma'nolar orqali shakllanadi. Masalan: blaue Bohrn - o'qlar, Heldenpruler - vrach, Negerschwarz - qora kofe.

XVII-XVIII asrlardan boshlab nemis tilida o'ziga xos talabalar tili (Studentensprache) shakllana boshladi. Ko'pgina hazilomuz so'zlar nemis tilidagi o'zakka grek, latin, frantsuz tillari suffikslari qo'shish yo'li bilan yasalgan. Masalan, Pechtss – aus Pech haben, Politiker – Schlaukopf, listig; Student so'zini ifodalash uchun qator jargonizmlar qo'llanilgan – Bursche, Fuchs, Brander. Birinchi kurs talabalarini Pennalputzer, Fuchs, Mutterkalb so'zlari bilan atalgan. Yoshlar leksikasining asosiy manbasi umumtil leksikasi, dialektlar, jargonizmlar, o'zlashtirma so'zlardir. Hozirgi kunda asosan ingliz va frantsuz tillari o'zlashmalari ommaviylashmoqda. “In den 80-er Jahren -, deb yozadi L.SHevelyova, - waren populdr: Hobby (Steckenpferd), Hitmusik, Hitparade, Ferienjob, Jobsucher, Hobbyst, Hobbysmus, jobben; Abkürzungen: Stip, Audimax, Uni usw.”.⁴

Talabalarning o'ziga xos jargon so'zlari ham mavjud. Masalan, Zahn – hübsches Mädchen, junges Frdulein, Typ – Herr, Menage – Essen, ein Rohr brechen – eine Flasche trinken, in die Schlune gehen – ins Kino gehen, die Lappen – Geld, die Mause – Geld, die Regierung – Eltern, die Wuchtbrumme –

wunderbares Mädchen, die Lulle – Zigarette, Chef gemacht – eine gute Prüfung gemacht, Plaudertasche – Mikrophon, Mottenkisteg'Leierkasten – Kamera usw.

Maktab o'quvchilarining ham o'ziga xos jargon so'zlari mavjud. Masalan, Bio – Biologie, Erdi – Erdkunde, Gesch – Geschichte, Tri – Trigonometrie, Litte – Literatur, Latte – Latein, Franz – Franztssisch, Matte – Mathematik, Direx – Schuldirektor, Abbi – Reifeprüfung, Penne (Pennal, Kasten, Gefdnngnis, Kaff) – Schule, Brummer (Doppelfalter, Großvater, Hüter) – Sitzenbleiber usw.

Bunday holatni o'zbek tilida ham kuzatish mumkin. Savdogarlar, talabalar, haydovchilar tiliga xos bo'lgan lug'aviy birliklar mavjud. Masalan, qaychi – revizor, loy, yakan, soqqa – pul, qism – ulush kabi leksemalarni misol keltirishimiz mumkin.

Argotizmlar. Das Argot frantsuz tilidan olingan bo'lib, firibgar, o'g'ri, bezori, daydi (Gauner, Bettler) va boshqa jamiyatdan tashqari elementlar (deklassierte Elemente) tilini ifoda qiladi. Rotwelsch so'zi tushunib bo'lmaydigan, daydi va boshpanasizlar tili ma'nosini bersada, “rot” so'zi bu yerda “Bettler” ma'nosini ifodalaydi.

Jargonlar (Jargons) aslida milliy tildan uzoqlashgan maxsus leksika bo'lib, ko'p sonli bo'lmagan kichik to'da leksikasidir.

Bir qator jargonizmlar qadimgi yahudiy (althebräisch) hamda lo'lilar (Zigeunersprache) tilidan kirib kelgan, yashirin ma'noga ega bo'lgan, boshqa sotsial guruhlar uchun tushunarli bo'lmagan so'z va iboralardir. V.SHmidtning yozishicha, XIX asrda jamiyatni ana shunday to'dalardan ehtiyot qilish maqsadida mahkama (Behörde) tomonidan hatto shu to'dalarning tili jamoatchilikka yetkazilgan ekan. XIX asrdan boshlab ko'pgina jargonizmlar o'zlarining dastlabki ma'nolarini yo'qotib, kundalik muloqot tiliga o'zlashib keta boshladilar, ba'zi jargonizmlar hozirgi kunda yoshlar slengida saqlanib qolgan. Masalan, lo'lilar tilidan olingan ba'zi so'zlarning ishlatilishiga e'tibor bering: bolo – Schwein, grai – Pferd, maro – Brot u.a.

Umuman olganda jargonizmlar umumtil lug'aviy birliklari asosida yasaladi. Bu haqda M.D.Stepanova va I.I.CHernishyovalar ta'kidlab o'tganlar.

Xulosa

Mazkur mavzu bo'yicha olib borgan ishlarimiz natijasida (badiiy tasvir vositalari, ularni aks etishi (adabiyotda va nutqda) tavsifi va tasnifi, tildan- tilga o'girish, o'qitish borasida) quyidagi xulosalarga keldik.

- Adabiyot – sa'natning bir turi, so'z san'atidir. Badiiy adabiyot hayotni so'z orqali tasvir etadi. Adabiyotda hayotning muhim voqea - hodisalari, kishilarning o'ziga xos xislatlari, ruhiyati, orzu - umidlari, dardi, sir - asrorlari aks etadi. Shu tariqa, adabiyot turmushni o'rganish quroli bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchi turmushni, fakt va hodisalarni o'rganadi, ulardan zarur xulosalar chiqaradi. Ana shu xulosalarni jonli obrazlar vositasida ifodalaydi. Demak, badiiy adabiyot dunyoni badiiy o'zlashtirishdan iboratdir. Badiiy asarda qo'llanilgan barcha so'zlar ham tasviriy vositalardir. Ana shu so'zlar vositasida yozuvchi asarning ma'nosi, g'oyasini o'quvchiga yetkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-xodisaga o'quvchining munosabatini uyg'otadi. Busiz, umuman adabiy asar haqida gap bo'lishi mumkin emas. Adabiy asarda ishlatilgan so'zlarning bir xili betaraf qimmatda bo'lsa, ikkinchi bir xillari nutqqa ekspressivligi, emotsiya berish uchun xizmat qiladi. Albatta neytral qimmatga ega bo'lgan so'zlar ham kontekst, maxsus intonatsiya yordamida nutqqa ekspressivlik kiritishi mumkin.

- Tasviriy vositalar barcha tillarga xos umumiy stilistik birlik bo'lib, u turli tillarda turlicha nomlanadi (metafora, metonimiya, kinoya, o'xshatish, metaphor, metonymy, irony, simile, ирония kabilar).

- Badiiy tasvir vositalarning tuzilishi va shakli barcha tillarga xos umumiy birlik bo'lib, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda mazmuni va shakli o'zgarishi, o'zgarmasligi yoki tasviriy

vosita bo'lmay qolishi mumkin. Bu ko'rinish quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-Asliy birlik bilan tarjima qilingan birlik o'rtasida semantik assotsiatsiya ya'ni bog'liqlik bo'lmasa.

-Asliyatdagi joy nomlari bilan bog'liq an'ana va udumlar yoki faxrli nomlarning o'girilayotgan tildan farq qilsa.

-Ko'p hollarda tarjimada asliyatdagi original variant saqlanadi. - Kuzatuvlarimizda tasviriy vosita bir so'z yoki birikma orqali ifodalanishi mumkinligini aniqladik. Bu xususiyat qiyoslanayotgan har ikki tilga xosdir.

O'xshatish — ikki narsa yoki voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkreteroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir.

Ijtimoiy chagaralangan lekika ma'lum social guruxga mansub so'zlar bo'lib, ular o'g'zaki nutqda ko'proq uchraydi. Yozma schaklda ular badiiy asarlarda tasviriy vosita sifatida personajlar xarakterini tasvirlab berish uchun uslubiy maqsadlarda foydalaniladi. Ularga jargonizmlar, argo va turli sosial guruxlar: yoshlar tili, ovchilar, studentlar, ayollar va xokazo ga mansub leksikalar kiradi.

Badiiy tasvir vositalarini o'qitish va o'rganish bo'yicha aniq texnologiyalar mavjud emasligi bois ushbu masala bo'yicha uslubiy tavsiyalar yaratdik. Uslubiy tavsiyalar o'z ichiga til va nutq, tarjima mashqlari, vaziyatli o'yinlarni oladiki, ularning barchasi til o'rganuvchilarda nafaqat badiiy tasvir vositalariga oid, balki ularni tashkil etuvchi birliklarni tarkib toptiradi. O'qitish sifatini oshiradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. И.А.Каримов “Баркамол авлод орзуси”. Тошкент, 1999- йил.
2. И.А. Каримов “Юксак маънавият- энгилмас куч”. Т., “Маънавият”, 2008.
1. И.А. Каримов “Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори” Т.1998. 8-9 бетлар.
2. “Баркамол авлод йили” давлат дастури Т.2010.
3. С.Қурбонов “Адабиётшунослик асослари”. Андижон, 2006.
4. З.М.Қобилова “Адабиётшунослик асослари”, Андижон 2005.
5. Ротбуня А. Эстетика и поэтика.-М.,1976.
6. Р.Қўнғуров “Ўзбек тилининг тасвирий воситалари” “Фан” Тошкент-1977
7. Мухторхон Умархўжаев. “Тил илми уммони” Тошкент 2013
8. Мухторхон Умархўжаев. “Уйғоқ сатрлар” Тошкент 2013
9. E. Riesel, E. Schendels „Deutsche Stilistik“ Moskau Verlag Hochschule 1975 86-96
10. М. Э. Умархўжаев Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. Андижон 2010- 79-134.
11. Vinogradov V.V. Стилистика, теория поэтический речи, поэтика. М. 1963.
12. D.Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish”, Т. 2010.
13. A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamov “O'zbek tili stilistikasi”, Т. 1983.
14. Степанов Г.В.О “О стиле художественной литературе”. “Вопросы языкознания”, 1952, №5.
15. I.R.Galperin “Stylistics”, Moscow, 1971.

16. А..Тихонов, Р.Кунгуров. Сравнения в русском и узбекском языках, “Республиканская конференция по вопросам языкознания и методика преподавания иностранных языков”, Алма-Ата, 1964 г., 73- бет..
18. G'.Abdurahmonov. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. O'zFA nashriyoti T., 1958, 204- bet.
19. Nayarov Qambarali Kurzgefasste deutsche Stilistik. Vorlesungen für Studenten Andishan 2004
20. www.allabout.com
21. www.googleencyclopedia.com
22. www.amazon.com
23. www.facebook.com